



TINISH BELGILARIGA OID DASTLABKI MANBALAR

Ishmurzayeva Lobar Anvarjon qizi*Guliston davlat universiteti**Lingvistika:o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dastlab qo'llangan punktuatsion belgilar so'zlarni va jumlalarni bir-biridan ajratish uchun, og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lgan turli aksentema va melodikalarni ifodalash uchun qo'llanilganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Punktuatsiya, tinish belgilari, emotsional-ekspressiv, semantik, strukturaviy-grammatik.

Ma'lumki, yozma nutq komunikativlik vazifasi jihatdan kishilik jamiyatni hayotida muhim ahamiyatga ega sanaladi. Bu jarayon "uch qism birligidan iborat: grafika, orfografiya, punktuatsiya" [G'oziyev, 1979: 3]. Bundan kelib chiqadiki, punktuatsiya ham jamiyat hayoti va taraqqiyotida yozma nutqning bir qismi sifatida asosiy o'rinnasabatli kasb etadi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida tinish belgilari muammolari, uning tarixiy-tadrijiy me'yorlari bo'yicha bir qancha ishlar olib borilgan bo'lib, ularda hozirgi o'zbek punktuatsiyasini turlicha davrlashtirish masalalarini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi zamon o'zbek tilshunosligida badiiy asar leksikasining semantik-funksional imkoniyatlari, lingvopoetik xususiyatlari va ularning leksik-stilistik aspektida o'rganilishiga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Bundan tashqari, ijodkor leksik vositalar orasidan funksional hamda emotsional-ekspressiv bo'yoq ifodalovchi, shuningdek, badiiy nutq doirasida chegaralangan, turli poetik qisqartmalar va neologizmlar, ushbu nutqqa xos bo'laklarning mutanosibligini ta'minlash maqsadida foydalananilgan okkazional so'zlarnigina qo'llaydi.

O'zbek badiiy adabiyoti tilini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini xarakteri jihatidan uchga bo'lish mumkin:

1. Badiiy adabiyot tilini o'rganishning umumiy masalalariga doir ishlar.
2. Badiiy asar tilini lingvistik aspektida o'ganishga doir ishlar.
3. Badiiy asar tilini adabiyotshunoslilik aspektida o'ganishga doir ishlar
[Umurqulov, 1990: 4].

Yozuv tarixiga e'tibor qaratilganda, dastlabki qo'llangan tinish belgilari matndagi jumlalarni ajratish, to'xtash o'rinalarini belgilash uchungina ishlatilgan. Ular "yozuvdan keyin paydo bo'lgan va ijtimoiy vazifa ifodalagach, yozuvning tarkibiy qismiga aylangan. Eng qadimgi yozuvlar ko'proq piktografik yoki logografik (alohida shakllar, belgilar orqali fikr ifodalash) shaklda bo'lganligi sababli tinish belgilariga ehtiyoj sezilmagan" Dastlabki tinish belgilari yozuv tarkibida semantik va grammatik funksiyalar bajarish uchun qo'llanmasda, lekin ma'lum darajada jumlalarning intonatsion sifatlarini o'zida aks ettirgan. O'z navbatida, tinish belgilarining og'zaki nutqda namoyon bo'lishi, albatta, ohang kabi murakkab prosodik hodisa bilan uzviy



bog'liq. Jahon tilshunosligida punktuatsion belgilarning shakllanish tarixi va evolyutsiyasiga nazar tashlanganda, dastlab tinish belgilarining prototiplari sifatida bo'shliq (interval)lar tanlangan. Xususan, "qadimgi yunonlar antik davrda so'zlarni bo'shliqlar bilan ajratib, jumlalarning boshinini katta harf bilan yozishni qo'llaganlar". Tinish belgilari oraliq masofani ifodalashdan tashqari, oddiy belgilar, shuningdek, ba'zi tipografik belgilarni anglash, o'qish va tushunish, kerakli o'rnlarda sukut qilish hamda ovoz chiqarib o'qish kabi so'zlardagi turli aksentema va melodikalar bilan uyg'unlashgan.

Tinish belgilari - muayyan tilda yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlari (gap bo'laklari)ning o'zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vositalar. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga (harflar va tinish belgilari) mansub bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan (raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar, bosmaxona belgilari) ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. Tinish belgilari ning yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega. Bu tizim — tinish belgilari miqdori, qo'yilish tartibi va qo'llanish prinsiplari yig'indisi — punktuatsiyani vujudga keltiradi. Bular yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) xamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lмаган turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, yozma nutqning tushunilishini osonlashtiradi. Tinish belgilari ning asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo'linishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdir.

Punktuatsiya – ijtimoiy hodisa davrlar o'tishi yozuv madaniyatining o'sishi bilan punktuatsiya ham o'zgarib takomillashib bordi. Davrlar o'tishi, yozuvning taraqqiysi va yozuv madaniyatining o'sishi bilan punktuatsiya ham o'zgarib, takomillashib boradi. Yozuvda dastlab qo'llanilgan tinish belgilarning qo'yilish o'rni, usuli, vazifalari hozirgidek aniq va murakkab bo'lмаган. Masalan, dastlab yulduzcha va romba tipidagi 10 dan ortiq ishoralar nuqta ornida ishlatilgan. XIX asrning oxiriga kelib, yozuvda hozirgi nuqtaning qo'llanilishi qat'iy lashgach, ular nuqtalikdan chiqqan. Demak davr talabiga bog'liq holda punktuatsion sistema o'zgarib boradi, mukammallahadi. Shuningdek, punktuatsiya va punktuatsion sistema tillararo har xildir. Punktuatsiya ayrim xalqlar yozuvida oldinroq ayrimlarida esa nisbatan keyinroq paydo bo'lgan. Masalan, ingliz tili punktuatsion sistemasida o'n ikkita tinish belgi bor. Ularda apostrof va defislар ham tinish belgi sanaladi. O'zbek tilida esa 10ta tinish belgi mavjud. Punktuatsion sistema rus yozuvida XVIII asrda, o'zbek yozuvida esa XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin vujudga kelgan.

Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari soni 10 ta: nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq. Ularning aksariyati

19-asr 2-yarmida ayrim gaz va toshbosma kitoblarning nashr etilishi bilan paydo bo'lgan.



Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-gramatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlataladi. Punktuatsiya, bir tomondan yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi, rivoji, uning o'rganilishi Fitrat, S.Ibrohimov, H.G'oziev, O.Usmonov, G'.Abdurahmonov, K.Nazarov va boshqa tilshunoslarning nomi bilan bog'liq. Punktuatsiya masalalari bilan bevosita shug'ullangan H.G'oziev («O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti», 1969, 1979), G'.Abdurahmonov («Punktuatsiya o'qitish metodikasi», 1968), K.Nazarov («Tinish belgilari va yozma nutq», 1974; «O'zbek tili punktuatsiyasi», 1976)larning asarlari nashr etilganiga ancha yillar bo'ldi va ulardagi tinish belgilarining ishlatalishi haqidagi fikr-mulohazalar ham bir qadar o'zgardi. Buning ustiga, «muallif punktuatsiyasi», ya'ni muayyan muallif tomonidan tinish belgilarining amaldagi qoidalarga bo'yusunmagan, unga rioya qilmagan holda individual qo'llash holatlari uchraydiki, bu ham keng o'quvchilar ommasini chalkashtiradi, shubhalantiradi.

Punktuatsiya – yozuv oynasi. Yozuv orqali ifodalangan har bir gapning mazmuni, ma'no turlari va sintaktik qismlari orasidagi turli munosabatlarni aniqlashda punktuatsiyaning o'rni muhimdir. Punktuatsiya yozuvchi va o'quvchi(kitobxon) o'rtasidagi ijtimoiy aloqa aralashuvni ta'minlashda ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimuhammedov R. Qadimgi turkiy bitiklarda punktuatsiya va matnni anglash uchun ishlatilgan ishoralar haqida Xorijiy filologiya. 1-son. -Toshkent, 2016.
2. Bahriiddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. - Toshkent: «Akademnashr», 2015.
3. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. -Toshkent: "Fan", 1990.